

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**CONCEPTUAL AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF INFORMATION TECHNOLOGY TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE****Otabek Juraboyevich Khidirov***PhD in Philology**Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Information technology, terminology, concept, cognitive linguistics, semantics, Uzbek language, computational linguistics, technolinguistics, terminological system.

Received: 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25

Abstract: This article analyzes the conceptual, semantic, and linguistic foundations of information technology (IT) terminology in the Uzbek language. The study explores the concept from cognitive and linguocultural perspectives, focusing on its formation sources and its role within the system of specialized concepts.

O‘ZBEK TILIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TERMINLARINING KONSEPTUAL VA LINGVISTIK ASOSLARI**Otabek Jo‘raboyevich Xidirov***f.f.f.d (PhD), dotsent**Jizzax davlat pedagogika universiteti**Jizzax, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, terminologiya, konsept, kognitiv tilshunoslik, semantika, o‘zbek tili, kompyuter lingvistikasi, texnolingvistika, termin tizimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari (AT) sohasiga oid terminlarning o‘zbek tilidagi konseptual, semantik va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda konsept tushunchasining kognitiv va lingvomadaniy asoslari, uning shakllanish manbalari hamda maxsus konseptlar tizimidagi o‘rni yoritilgan.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ И КУЛЬТУРНЫЙ КОД В ТЕРМИНОЛОГИИ АГРОТУРИЗМА**Отабек Джурабоевич Хидиров***Кандидат филологических наук (PhD), доцент**Джизакский государственный педагогический университет*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Информационные технологии, терминология, концепт, когнитивная лингвистика, семантика, узбекский язык, компьютерная лингвистика, технолингвистика, терминологическая система.

Аннотация: В данной статье рассматриваются концептуальные, семантические и лингвистические особенности терминов, связанных с областью информационных технологий (ИТ) в узбекском языке. Анализируется понятие концепта с точки зрения когнитивной и лингвокультурной лингвистики, его источники формирования и место в системе специальных концептов.

Kirish. Axborot texnologiyalari (AT) bugungi kunda jamiyatning barcha qatlamlarida chuqur ildiz otgan va til tizimiga keng hamda jadal kirib kelgan sohalardan biridir. O'zbek tilshunosligida ushbu terminlarning konseptual mazmunini aniqlash, ularning semantik tuzilmasini o'rganish, kognitiv asoslarini isbotlash dolzarb ilmiy muammolardan sanaladi. Mazkur faslda aynan AT sohasiga oid terminlarning o'zbek tilidagi semantik va konseptual asoslarini tahlil qilishga harakat qilindi.

Ma'lumki, XXI asrda axborot texnologiyalari (AT) jamiyat hayotining barcha jabhalariga izchil kirib kelmoqda. AT sohasidagi global inqilob va raqamli transformatsiyalar tufayli dunyo tillari qatori o'zbek tilining lug'at tarkibiga ham ko'plab yangi tushuncha va atamalar qo'shildi. Bugungi kunda ushbu terminlar o'zbek tilida nafaqat ilmiy-texnik uslubda, balki kundalik muloqot va ommaviy axborot vositalarida ham faol qo'llanilmoqda. Shu bois, o'zbek tilidagi AT terminlarining konseptual mazmunini chuqur tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv tilshunoslikning muhim birliklaridan biri sanalgan konsept tushunchasi mavhum birliklar, shaxsning fikrlash jarayonida ishtirok etadigan tajriba va bilimlar majmuyini aks ettiradigan ma'nolar tizimi sifatida izohlanadi. Taniqli rus olimi V.Maslovaning ushbu tushuncha haqidagi fikrlarini S.Ojegov quyidagicha ta'rif keltirgan: "Bu lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir".

Hozirda kognitiv tilshunoslik va uning tarkibiga kiruvchi birliklar antroposentrik yondashuvning eng so'nngi yutuqlarini mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Kognitiv tilshunoslikni hozirgi holatiga kelishiga asosiy sababchi bo'lgan olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakof, R.Langaker, R.Jakendof kabilardir.

Xorijiy o'quv adabiyotlarini tahlil qilar ekanmiz konsept atamasi o'tgan asrning 50-70-yillarida ham konsept atamasi lingvistik lug'atlarda mavjud bo'lmagan.

Rus tilshunoslari orasida S.Askoldov konsept haqida fikr bildirar ekani uni fikrning eng kichik bo'lagi tarzida tariflaydi. Ushbu olim rus ilmiy makoniga ilk bor konsept atamasini olib kirgan. Uning fikricha, konsept faqat so'zning ma'nosi emas, balki fikrlash jarayonidagi asosiy birlikdir.

Yu.Stepanov konseptni madaniyat doirasida shakllangan murakkab mental birlik deb hisoblaydi. Uning konsepsiasi madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan. O'zining asarlaridan birini konseptlarni madaniy konstanta sifatida talqin qilgan.

Konseptlarni falsafiy va lingvomadaniy aspektlarda chuqur o'rgangan, o'zining kitoblarida konseptlarni tahlil qilgan, ularni madaniy-falsafiy fenomen sifatida ko'rsatgan olimlardan biri N.Arutyunovadir. Olima kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat paradigmasida yetakchi ilmiy maktabni asos solgan olimlardan. Boshqacha qilib aytganda, u konseptni kundalik fikrlash jarayonining natijasi sifatida, madaniy-ma'rifiy kontekstda shakllangan birlik sifatida ko'rsatgan. Uning fikriga ko'ra, konseptlar – til va madaniyat kesishmasidagi murakkab aqliy tuzilmalar bo'lib, ular orqali til va madaniyat o'zaro kesishadi.

Shunday qilib, konseptlarni o'rganish orqali inson dunyoqarashidagi madaniy xususiyatlarni, milliy tafakkur tarzini va tilning chuqur semantik qatlamlarini tushunish mumkin bo'ladi. Konsept til va madaniyatning chuqur integratsiyasini aks ettiruvchi, ko'p qirrali va kompleks aqliy birlik bo'lib, tilshunoslikda muhim o'rin tutadi.

Konsept haqida muhokama qilar ekanmiz, konseptlarni ham umumtil va maxsus konseptlarga ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O'z nomidan umumtil konseptlar butun xalq yoki madaniyat uchun umumiy bo'lgan tushunchalarni anglatadi. Ular barcha sohalar uchun muhim va keng qo'llaniladigan konseptlardir. Masalan, sevgi, yaxshilik, ona, vatan, do'stlik. Ular umummadaniy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalab, keng ko'lamli tushunchalar doirasiga ega bo'ladi.

Maxsus konseptlar esa muayyan fan, soha yoki kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, faqat shu sohada ishlatiladigan tor tushunchalarni ifodalaydi. Maxsus konseptlar odatda aniq terminologik jihatdan chegaralangan va qat'iy tushuniladi. Masalan, algoritm, fotosintez, inflyatsiya, semema. Tilshunoslikda aynan umumtil va maxsus konseptlar sifatida ajratgan, ochiq va qat'iy chegaralangan shaklda ajratish masalasini ilmiy jihatdan asoslab bergan aniq bir olimning konsepsiyasi mavjud emas. Ammo konseptlarni turli mezonlarga ko'ra, jumladan umumiylik, universallik yoki maxsus jihatlarga ko'ra ajratish amaliyoti keng tarqalgan. Hattoki, V.Karasik konseptlarni quyidagicha ajratadi:

- umumadaniy konseptlar;
- shaxsiy konseptlar;
- guruh konseptlari.

V.Karasikning konseptlarni bo‘lish jarayonini tahlil qilarkanmiz, u har bir konseptning mavzusini faqatgina tor doirada chegaralab qo‘ygan. Taklif etilayotgan bo‘linish qaysidir ma’noda mohiyatan mazkur olim tasniflashiga yaqin bo‘lishi mumkin, lekin ijtimoiy sohaga oid boshqa konseptlar qaysi konsept guruhiga kirishi to‘g‘risidagi savolga javob berishda qiyinchilikka uchrashi mumkin. Shunday ekan, ushbu bo‘linishdan yana kichik bo‘linishlar, xullas, oxirida konseptlar iyerarxiyasi paydo bo‘ladi. Xususan, axborot-texnologiyalariga oid tushunchalar ham maxsus konseptlarning tarkibiga kiruvchi birlik sanaladi.

Shu o‘rinda AT terminlari konseptlarining shakllanish manbalari, ya’ni xalqaro standartlardan o‘zlashtirilgan terminlar, mahalliy madaniy va til vositalaridan shakllangan terminlar hamda aralash terminlarning konseptual jihatlari to‘g‘risida fikr yuritishni joiz deb bildik.

O‘zbek tilidagi axborot texnologiyalari terminlari konseptual jihatdan shakllanishda turli xil manbalardan oziqlanadi. Ushbu terminlar konseptual jihatdan ikki asosiy yo‘l orqali shakllanadi: xorijiy tillardan o‘zlashtirish va milliy vositalaridan foydalanish orqali.

Xorijiy tillardan o‘zlashtirish eng keng tarqalgan va samarali yo‘llardan biridir. Bu jarayon, asosan, ingliz va rus tillaridan o‘zlashtirilgan terminlar orqali amalga oshadi. Ingliz tilidan kirib kelgan terminlar xalqaro axborot texnologiyalarining standartlari bilan bog‘langan bo‘lib, ular global texnologik jarayonlarning uzviy qismi sifatida o‘zbek tilida foydalaniladi. Bunga misol sifatida server, internet, brauzer, router, Wi-Fi, bluetooth (ushbu terminning talaffuzi va imlosi bo‘yicha biror izohli lug‘atlarda keltirilmagan, shuni inobatga olgan holda ushbu termin transliteratsiya tarjima usuli orqali o‘zbek tiliga ko‘chirilishi maqsadga muvofiq), interface, cloud computing kabi terminlarni keltirish mumkin. Bu turdagi terminlarning konseptual mohiyati xalqaro standartlarga mos bo‘lib, ular o‘zbek tilida deyarli o‘zgarishsiz ishlatiladi.

Rus tilidan kirib kelgan terminlar ham o‘zbek tilidagi AT terminlari qatorida muhim o‘rin egallaydi. Bu terminlar avvalroq rus tili orqali xalqaro standartlardan o‘zlashtirilgan yoki rus tilida shakllangan texnik lug‘at asosida kirib kelgan. Masalan, kompyuter, monitor, fayl, disketa, klaviatura, printer, skaner kabi terminlar dastlab rus tilidan kirib kelib, o‘zbek tilining texnologik lug‘atiga integratsiyalashgan.

Milliy til vositalaridan shakllangan AT terminlari o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib yaratiladi. Bunday terminlar madaniy va milliy ongga yaqin bo‘lib, mahalliy aholi uchun tushunarliroq va qo‘llashda qulay hisoblanadi. Misol tariqasida, ma’lumotlar bazasi, tarmoq qurilmasi, ishchi stol, ma’lumot uzatish, xavfsizlik devoir, dasturiy ta’minot, matn muharriri, xotira qurilmasi kabi terminlarni keltirish mumkin. Bu turdagi terminlar xorijiy konseptlarning mahalliy o‘zbek tilida moslashuv jarayonini ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, aralash yoki gibrid terminlar mavjud bo'lib, ular qisman tarjima va qisman o'zlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Masalan, tarmoq printer, kesh-xotira, veb-sahifa, operatsion tizim, mobil ilova, raqamli imzo, elektron pochta kabi terminlar bu turdagi konseptlarning tipik namunalari hisoblanadi.

Xullas, AT terminlari konseptual jihatdan o'zbek tilida shakllanishida xorijiy manbalarning ta'siri bilan birga milliy lingvistik imkoniyatlar ahamiyatga ega. Bu esa terminlarning semantik aniqligi, standartlashtirilishi va milliy madaniyatga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbek tilidagi axborot texnologiyalari terminlarining konseptual strukturasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular turli semantik guruhlariga bo'linadi. Ushbu terminlarning konseptual strukturasi tahlil qilish orqali terminlar orasidagi mantiqiy-semantik munosabatlarni aniqlash va tizimlashtirish mumkin bo'ladi.

O'zbek tilshunos olimlarning ishlarini tahlil qilarkanmiz, ular o'zbek tilida AT terminologiyasining konseptual, semantik va leksik-tahliliy jihatlarini chuqur yoritadi. D.Kadirkbekova, D.Saidqodirova, S.Primkulova, O'.Ahmedov kabi olimlar ingliz, rus va o'zbek tillarida AT terminologiyasining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilgan, internet terminologiyasining tuzilishi, semantik o'ziga xosliklari va tarkib tizimi haqida so'z yuritishgan hamda AT atamalarini, jumladan digital economy va marketing sohalaridagi terminlarni semantik va tipologik jihatdan tahlil qilgan. Bundan tashqari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasini leksikografik tahlil qilishgan,

Xuddi shunday sanab o'tilgan o'xshab AT terminlarini to'rt guruhga bo'lishga qaror qildik.

Birinchi guruhga texnik qurilmalarni ifodalovchi terminlar kiradi. Bu terminlar ko'pincha obyektiv va aniq jismoniy obyektlarni ko'rsatadi. Masalan, "kompyuter", "monitor", "printer", "skaner", "klaviatura", "router", "protssessor", "modem", "planshet" kabi terminlar shular jumlasidandir. Ushbu terminlar texnik qurilmalarning funksional xususiyatlarini ifodalash bilan birga, ular bilan bog'liq texnologik jarayonlarni ham yoritadi.

Ikkinchi guruh dasturiy vositalarga oid terminlardan tashkil topadi. Bular dasturiy ta'minot va unga oid jarayonlarni ifodalovchi terminlardir. Bu guruhga "dastur", "operatsion tizim", "antivirus", "brauzer", "matn muharriri", "grafik interfeys", "algoritmlar", "mobil ilova" kabi terminlar kiradi. Ular dasturiy mahsulotlar va xizmatlarning funksional imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi guruh axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Bu guruhga asosan tarmoq va aloqa vositalariga oid terminlar kiritiladi. "Internet", "Wi-Fi", "Bluetooth", "tarmoq protokoli", "server", "hosting", "tarmoq qurilmasi" kabi terminlar mazkur guruhga tegishlidir. Ushbu terminlar axborot almashinuvi va kommunikatsiya jarayonlarini ifodalovchi asosiy tushunchalardir.

To'rtinchi guruh ma'lumotlar xavfsizligi va boshqaruviga oid terminlardan tashkil topadi. Ushbu guruhga "ma'lumotlar bazasi", "kiberxavfsizlik", "xavfsizlik devoir", "shifrlash", "raqamli imzo", "fayl xavfsizligi" kabi terminlar kiradi. Bu terminlar axborot texnologiyalarining xavfsiz ishlashini ta'minlovchi tushunchalarni qamrab oladi.

Mazkur semantik guruhlar orqali O'zbek tilidagi AT terminlarining konseptual tizimini to'liq va samarali tarzda tizimlashtirish hamda tadqiq qilish mumkin bo'ladi.

Ilmiy izlanishlarning ko'rsatishicha, termin – lug'at boyligining alohida qatlami bo'lib ilmfan va texnika doirasidagi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Terminlar oddiy leksik birliklardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajraladi: ularga aniqlik, sistemaviylik va muayyan konsept bilan bevosita bog'liqlik xosdir. AT terminologiyasi ham ana shunday maxsus tushunchalar sistemasini ifodalovchi atamalar majmuasidir. Axborot texnologiyalari konsepti deganda, axborotni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash, saqlash va uzatish bilan bog'liq tushunchalar majmuasi tushunilishini yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi. Bu konsept doirasiga kompyuter qurilmalari, dasturiy ta'minot, tarmoqar, internet va shu kabi sohalar kiradi. Demak, AT terminlari mazkur konseptual maydonning har bir elementini nomlash, tasniflash va ilmiy izohlash vazifasini bajaradi.

Terminologiya nazariyasiga ko'ra, har bir termin orqasida muayyan ilmiy tushuncha – konsept yotadi. V.P. Danilenko ta'kidlaganidek, terminologiya adabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni fan va texnika tili hisoblanadi. Fan tili esa milliy adabiy til bazasida shakllanadi va rivojlanadi. Shu ma'noda, AT terminlari zamonaviy o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi sifatida rivojlanib, axborot texnologiyalari sohasi uchun maxsus tizimni hosil qilgan. Terminlar oddiy nom emas, balki tushuncha – ya'ni obyekt, hodisa yoki jarayonning intellektual modeli bilan bog'liq belgilovchi vositadir. Vena maktabi asoschisi E.Vusterning "avval konsept, so'ng nominatsiya" tamoyili bu borada asos qilib olinadi. Xalqaro ISO 704:2022 standarti ham terminologik ishlarda birinchi bosqich konseptual tahlil bo'lishi, termin esa faqat shu tahlil natijasida berilishi kerakligini belgilab beradi. Demak, axborot texnologiyalari terminlari turli qurilma va dasturiy vositalarga oid konseptlarni kodlashga xizmat qiladi. Terminlar mazkur konseptlararo munosabat (generic, partitiv, assotsiativ) tizimida aniqlik kasb etadi.

Shunday qilib, AT konseptlarini o'zbek tilida muvaffaqiyatli shakllantirish va ularni keng ommaga singdirish jarayonida lingvistik barqarorlik, semantik aniqlik, fonetik moslashuv va atama izchilligi asosiy metodologik mezonlar sifatida qaralishi zarur. Bu mezonlarga asoslangan til siyosati va amaliy atamashunoslik yondashuvi orqali texnik konseptlar nafaqat mutaxassislar doirasida, balki keng jamoatchilik tomonidan ham samarali qabul qilinadi va faol til birligiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка: около 100 000 слов, терминов и фразеологических выражений. – Москва: ОНИКС-ЛИТ, Мир и Образование, 2012. – С.47.
2. Аскольдов С. А. (Алексеев С. А.). Концепт и слово // Русская речь: Новая серия. Вып. II. – Ленинград, 1928. – С. 28–44.
3. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Академический проект, 1997. — С. 990
4. Арутюнова Н. Д. Логический анализ языка: Культурные концепты / отв. ред. Н. Д. Арутюнова. — М.: Наука, 1991. — С 204.
5. Kadirbekova D.X. Inglizcha-o'zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari. Filol. fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2016.
6. Saidqodirova D.S. Linguistika tahlili: Ingliz va o'zbek tillarida Internet terminlari // Filol. fanlari bo'yicha falsaf.d-ra PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2017.
7. Ahmedov O'. Ingliz-o'zbek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasining leksikografik tahlili: Filol. fan. nomz. dissert. avtoreferati. – Toshkent, 2019.
8. Uzaqova O. Ingliz va o'zbek tillarida kompyuter terminografiyasining lingvistik xususiyatlari. // FarDU. ILMIY XABARLAR jurnali. 3-son, 2022-yil. B.396-399
9. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 136 b.
10. Wüster, E. 1974/1993. „Die allgemeine Terminologielehre – ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaften, Logik, Ontologie, Informatik und den Sachwissenschaften.“ In Linguistics. No 119.